



QADIMGI O'RTA OSIYONING XITOIY MANBALARIDA YORITILISHI

¹Davlatov Orziqul Bahodirovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Telefon. +998 93 0040979,

²O'roqov Akmal Nurqobil o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Telefon: +998 99 558 42 95,

³Mo'minov Nodirbek Botir o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

+998 90 249 49 43.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460616>

ARTICLE INFO

Received: 08th December 2022

Accepted: 18th December 2022

Online: 19th December 2022

KEY WORDS

O'rta Osiyo, Ablat Xojayev, Dovon, Ershi, "vang" unvoni, N.Y.Bichurin, Farg'ona, Katta Parkona.

ABSTRACT

Ushbu maqolada qadimgi O'rta Osiyoning tarixini o'rganishda xitoy manbalarining qanchalik ahamiyatga ega ekanligi va bizning hududimizda joy nomlari qanday atalganligi haqida malumot berilgan. Yana unda Xitoy sayyohlarining O'rta Osiyoga sayohatidagi ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek O'rta Osiyo tarixini drganishdagi kamchiliklarni Xitoy manbalari orqali todirib o'tilgan va unda o'zbek davlatchiligiga oid muammolarga aniqlik kiritilgan.

Xitoy manbalari haqida so'z boshlashdan oldin shuni aytib o'tish lozimki ularning ma'lumotlari asosan xitoyliklarning manfaatini ko'zlab yozilgan, boshqa joylar tarixi esa bir tomonlama yoritilgan. Lekin xitoy manbalarida voqealar vaqti va o'rni aniq ko'rsatiladi. O'rta Osiyo tarixini o'rganishda esa quyidagi xitoy manbalari muhim rol o'ynaydi. Xitoy tarixchisi Sima Szyan xitoy tarixshunoslarining "otasi" hisoblanadi. U saroy tarixchisi Sima Txan oilasida tug'ilgan. Keyinchalik u imperatorning mahkamasining boshlig'i bo'ladi va kitobini yozib boshlaydi. Sima Szyan "Shi Szi" (Tarixiy esdaliklar) nomli 130 bobdan iborat yirik tarixiy asar yozgan. Asarda O'rta Osiyo haqida, shuningdek 123-bobida Farg'ona va uning xalqi, hayoti bo'yicha qimmatli ma'lumot bor. Asar keyinchalik rus va fransuz tiliga tarjima

qilingan. Yana bir yirik tarixchi Ban Gu "Szyan Xan shu" (Avvalgi xan sulolasi tarixi) nomli asar yozib qoldirgan. "Szyan Xan shu" asarining 95-bobida O'rta Osiyo va Sharqiy Turkistonning qadimiy tarixi, xalqi va ularning hayoti haqida ma'lumotlar uchraydi. Ayniqsa qang'li, yeuchji va usunlar haqida ko'plab ma'lumotlar bor.

Xitoy manbalari o'zbek tiliga umuman tarjima qilinmagan. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda xitoy manbalarida qadimgi yurtimizga, xususan, Farg'ona tarixiga oid ma'lumotlarning tarjimasiga qo'l urishimizni katta ishga qo'yilgan birinchi qadam, deb hisoblash mumkin. O'zbek tiliga tarjima uchun olingan ushbu ma'lumotlar "24 tarix" (Ershisi shi) tarkibiga kiritilgan 5 xonlik davrigacha (907-979) bo'lgan sulolalar tarixlari, VIII-XII asrlar oralig'ida alohida mavzularga



bo'lingan xolda yozilgan tarixiy asarlar va Xitoydan Turkistonga kelib ketgan sayyohlar esdaliklaridan iborat. Xitoychadan rus tiliga tarjima qilingan asarlarda Markaziy Osiyoga tegishli xitoycha toponimlar va etnonimlarning mahalliy nomlarini topishning iloji bo'lmagan. Shu tufayli ularning tarjimalariga asoslangan tarixiy va ilmiy asarlarda turli chalkashliklar va noaniqliklar yuzaga kelgan. Masalan, xitoy manbalarida keltirilgan Farg'onaga oid ma'lumotlarda uchraydigan Davan (qadimda Day-yuan), Van (qadimda Yuan), Ershi (qadimda Riyeyshiyey), Yuycheng (qadimda Yivecheng), Guyshan (qadimda Kiveyshan) toponimlarining etimologiyasi va geografik joylashtirilishida bo'lgan. Bu muammolarni bartaraf etish uchun esa xitoyliklarning ko'plab lug'atlaridan foydalanilmoqda. Milodiy VI asrgacha yozilgan xitoy manbalaridagi malumotlarni chuqur o'rganish natijasida qadimiy Farg'ona mamlakati bilan uning ilk poytaxt shahrining nomi bir xil bo'lganligi va ular xitoycha atrofi tog'lar bilan o'ralgan tekislik ma'nosini bildiruvchi bitta Yuan iyeroglifi bilan ifodalanganligi aniqlangan. Chalkashliklarning oldini olish maqsadida qadimgi xitoy tarixchilari mamlakat nomiga "da" (buyuk) so'zini qo'shish orqali uni Day-yuan (Katta Parkona) deb nomlashgan. Shuning uchun biz mazkur tarjimalarda ushbu yondashuvni to'g'ri topib, asl matnning mazmuniga mos xolda "Day-yuan" (Davan) toponimini Buyuk Farg'ona deb qo'llanilgan. Ammo ayrim hollarda mamlakat nomi bo'lmish Day-yuan (Davan) toponimi qisqartirilib, Yuan deb yozilgan. Buni mavjud tarjimalardan emas, balki faqat asl matndan bilib olish mumkin. Bunday xollarda mamlakat nomini Farg'ona davlati

deb tarjima qilib, uning yoniga qavs ichida aslidagi "yuan" iyeroglifini yozib qo'yilgan. N.Y.Bichurin tarjimalarida shu kamchilik bartaraf etilmaganligi tufayli uning asarlarida "Yuan-cheng" tushunchasi yo'qolib qolgan. N.Y.Bichurin "Davan" Farg'ona ekanligini yaxshi bilgan. Biroq bu atamadagi "van" Pomir xalqlari tilida "atrofi tepaliklar yoki tog'lar bilan o'ralgan tekislik" degan ma'noni anglatuvchi Parkona so'zining tarjimasi ekanligini aytilmagan. Shu bilan birga olimlar "van" so'ziga "da" qo'shgan, iyeroglif qo'shib "Davan" deyilganda bu atama "Buyuk Parkona"ning tarjimasi bo'lishini tilga olmagan. So'nggi yillarda tarjima qilingan ma'lumotlarda "vang" unvoni ko'p uchraydi. Qadimgi Xitoy an'anasiga ko'ra, ushbu unvon davlat doirasidagi hokimlik hukmdoriga berilgan. Miloddan avvalgi III asrdan boshlab, Xitoyning oliy hukmdori xuangdi deb nomlana boshlangan. Shundan keyin xitoy imperatorlari o'zlarining martabasini ustun qo'yish maqsadida o'zga mamlakatlarning oliy hukmdorlariga nisbatan "vang" unvonini ishlatishgan. Afsuski, so'nggi paytda ayrim olimlarning "vang" atamasini mahalliy hukmdorlarning unvoni sifatida qo'llash holatlari kuzatilmoqda. Masalan, "История государственности Узбекистана" nomli kitobning 1-jildidagi "Ферганское государство Давань" bo'limida aynan shunday xatoga yo'l qo'yilgan. Unda "Государство древней Фергань! Управлялось правителем, носившим титул Ван" degan jumla keltirilgan. Shu asosda "Фу-ван" so'zi Qadimgi Farg'ona davlati hukmdorining birinchi, "фу-гован" esa ikkinchi yordamchisining unvonlari sifatida ishlatilgan. Quyida keltirilgan Farg'onaga oid ma'lumotlarning tarjimalarida bu fikrlarning asliyatga



zidligi ayon bo'ladi. So'nggi davrda XXRda uyg'ur tilida nashr etilgan asarlar va tarjimalarda "vang" unvoni "hokim" deb tarjima qilingan. Biz tarjimalarimizda Xitoyga tegishli bo'lgan tarixiy voqealardagi "vang"ni "xokim", xorijiy davlatlar, ya'ni qadimiy Xitoyning tashqarisidagi mamlakatlar hukmdorlariga nisbatan ishlatilgan "vang"ni esa "xon", "hukmdor" deb olsak bo'ladi. Saroy tarixchilari bu qoidadan chetga chiqishi mumkin bo'lmagan. Ushbu an'ana qadimgi xitoy hukmdorlari orasida shakllangan "xuangdi" tangrining yer yuzidagi o'g'lidir osmon tagidagi barcha mamlakatlar hukmdorlari uning itoatidagi hokimlardir, degan jahongirlik falsafiy

nazariyaga asoslangan. Shuning uchun xitoylar tomonidan G'arbiy va Sharkiy Turkiston hamda boshqa mintaqalardagi davlatlar hukmdorlariga nisbatan ishlatilgan "vang" atamasini mahalliy hukmdorlarning unvoni, deb qabul qilib bo'lmaydi. Dovon davlatining atrofi tog'lar bilan o'ralganligi uni boshqa davlatlar bilan aloqalarini biroz mushkullashtirgan. Dovon davlatining boshqa manbalarda yoritilishi. Bu davlat mil avv III asrda vujudga kelib, milodiy III asrda zavolga yuz tutgan. Dovon- xitoycha "Da" katta va ulug', "Vang je" esa qal'a so'zlaridan olingan bo'lib, "Ulug' qal'a" degan ma'noni anglatadi. Bu hududga O'zbekistonning Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlari kiradi. Hozirda Farg'ona vodiysi deb atalib, bu so'z sug'dcha "Fraganik" atrofi tog' bilan o'ralgan, past tekislik degan ma'noni anglatadi, qadimgi Dovonga shuningdek Farg'ona vodiysining atrofidagi hududlar ham kirgan. Bu davlar g'arbda Ulug' G'uzer

yoki Kushon davlati bilan, janubi-g'arbda Baqtriya bilan, shimoli-sharqda Usun qabilalari bilan, sharqda Dandon hududi bilan chegaradosh bo'lgan. Bu davlat haqida ko'plab muhim ma'lumotlar qoldirilsada eng muhimlaridan biri davlat poytaxti masalasi biroz noaniq bo'lib qolgan. Dovon tarixini o'rgangan olimlar bu davlatning poytaxtini turlicha tasvirlaganlar. Masalan:- Ablat Xo'jayev "Farg'ona tarixiga oid" asarida Dovon davlatini poytaxtini "Kiveysan ya'ni hozirgi Kosonsoy tumani o'rnida bo'lganligini aytadi. Iyakinf Bichurin esa o'zining asarida poytaxtni "Ershi" hozirgi Marhamat tumani deb yozadi. Bu 2 shahardan eng haqiqatga yaqinrog'i A.Xo'jayev aytgan shahar hisoblanadi. Chunki u Xitoy tarixchilarining asarlarini to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilgan va I.Bichurinning ko'plab xatolarini tuzatgani uchun uning ma'lumotlari haqiqatga yaqinroq.

Xulosa: O'rta Osiyo xalqlarining turmush tarzi, urf-odatlar, kiyim-kechagi va ko'p qirrali hayoti haqida qiziqarli materiallar Xitoy manbalarida ko'proq uchraydi. Shuningdek Dovon davlati unvonlari asosan xitoy manbalarida uchragani uchun ularning manbalariga ko'proq e'tibor qaratish kerak. Yuqorida tilga olingan xabarlar xitoy manbalarida keltiriladigan ma'lumotlarning ayrim bir qismidir. Shunday bo'lsa ham ular O'rta Osiyo tarixini o'rganishda xitoy manbalarining ahamiyati naqadar muhim ekanligini anglatadi. Ushbu manbalardagi ma'lumotlar chuqur o'rganilsa O'rta Osiyo tarixiga oid ko'p noma'lum va kam ma'lum bo'lgan masalalarga aniqlik kiritish mumkin bo'ladi.



References:

1. Ablat Xo'jayev. "Farg'ona tarixiga oid malumotlar". Farg'ona-2013.
2. Bo'ribov Ahmedov. "O'zbekiston tarixi manbalari". Toshkent-2001
3. Abduxoliq Abdurasul o'g'li. "Qadimgi Farg'ona tarixidan" Toshkent-2002
4. R.Shamsutdinov Sh.Karimov "Vatan tarixi Toshkent-2010
5. Og'Abek Bahridin Ogli Mamayusupov, & Quvonchbek Dilmurod O'G'Li Bozorov (2022). BUYUK IPAK YO'LI-MULOQOT VA HAMKORLIK YO'LI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2 (1), 115-122. doi: 10.24412/2181-2454-2022-1-115-122
6. Dilmurod o'g'li, B. Q. (2021). A NEW STAGE IN DIPLOMATIC RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND TAJIKISTAN. *Eurasian Journal of Academic Research*, 1(6), 64-66.
7. Panjiyev, J. T. O. G. L., Bozorov, Q. D. O. G. L., & Xolboyev, J. L. O. G. L. (2022). Artificial irrigation system during the reign of Amir Temur and the Temurids. *Science and Education*, 3(1), 154-156.
8. Nazirov, B. (2020). "IMOMUL HUDA - HIDOYATGA BOSHLOVCHI IMOM. Wydawnictwo Naukowe "iScience".
9. Nazirov, B. (2022). *Aburazzoq Samarqandiyning "Matlai sadayn va majma ul bahrayn" asarida tarixiy shaxslar talqini. "Lesson press" Nashriyoti.*
10. Nazirov, B. (2022). Temuriy hukmdorlar: Mirzo Shoxrux va Mirzo Ulug'bek. Risola. "Lesson press" Nashriyoti.
11. Xolto'rayevich, M. A. (2022). The Last Period in the Resistance Movement in Surkhandarya and the Repression of the National Forces. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY*, 3(12), 17-20.
12. Менглибоев, А. Х. (2021). Сурхондарё округида миллий кучларнинг қатағон қилиниши. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, 4(11).
13. Ibragimovna, K. N., & Dilmurod o'g'li, B. Q. (2022). Karakalpak Baxshi and the Art of Music. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY*, 3(5), 89-92.
14. Nazirov, B. (2022). *O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi. TAFAKKUR AVLODI*
15. Назиров, Б. С. (2021). МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ СОҲАСИДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ИСЛОҲОТЛАРНИНГ ТАРИХИЙ ТАҲЛИЛИ. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, (SI-3)